

IJTIMOIIY TARMOQLAR VA TEXNOLOGIYALARGA QARAMLIK VA UNING RUHIY SALOMATLIKKA TA'SIRI

Shoymurodova Gulzoda Xusniddinovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi.

Ilmiy rahbar: Norqobilova Rayhona Davlatovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning inson ongiga, ruhiy salomatligiga ko'rsatadigan ta'siri, zararli tomonlari va olimlar tomonidan qay darajada izlanishlar va yechimlar yopganligi hamda buning qay darajada muhimligini batafsil yoritib berish.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoq, ong, psixologik ta'sir, yoshlar, intrnet, media, axborot xavfsizlik, kompyuter, muloqot.

Bugungi raqamli asrda ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. Facebook, Telegram, Instagram, Tik tok kabi platformalar orqali odamlar muloqot qiladi, yangiliklardan xabardor bo'ladi. Ammo bu qulayliklar bilan birga ijtimoiy tarmoqlar inson ongiga, ruhiyatiga tasir qiladi.

1997-yil SixDegress.com resursi ijtimoiy doiralarning tarmoq modeli tomoyili asosida ishlay boshlaydi. Portalda ro'yxatga o'tgandan so'ng, foydalanuvchilar shaxsiy profillar yaratishlari, do'stlar qidirishlari va xabarlar aalmanishlari mumkin edi. Biroq 2003- yil hozir tanish bo'lgan ijtimoiy tarmoqlarning ommaviy paydo bo'lishining boshlanishi deb hisoblanadi. [1;30-bet. D.G'offorova "Ijtimoiy tarmoqlarning kitob o'qish odatiga ta'siri"]].

Daslab biznes va aloqalarni toppish uchun LinkedIn platformasi ishga tushirildi. Keyin My space xizmati paydo bo'ldi, bu yerda foydalanuvchi profillar, qiziqshlar hamjamiyatlari, bloglar, vidiolar, fotosuratlar, audiolarni joylashtirishi mumkin edi. Bir yil o'tgach, bugungi kunda eng yirik Facebook tarmog'I va 2005- yilda You Tube video xotinggiga asos solingan. Hozirgi kunda Facebook tarmog'idan foydalanuvchilar soni 2mlrdni tashkil qiladi. Ular o'rtacha 25-34 yoshlar oralig'ida bo'lib, 65,5 foizi erkaklar, 34,5 foizini xotin-qizlarni tashkil etar ekan. 2006- yil bahorida Rossiyada eng ommabop ijtimoiy platformalar, Internetning rus tilidagi sigmenti Odnoklassniki, Vkontakte paydo bo'ldi. 2010-yilda fotosuratlarni joylashtirish va almashish uchun Instagram ilovasi ishlab chiqildi. Hozirgi kunda instagram foydalanuvchilari 1mlrd dan ko'proqni tashkil qiladi. Ayni paytda O'zbekistonda esa 1.586.50 nafar foydalanuvchiga ega. Xizmat tez rivojlandi va 2012-yilda Facebook tomondan sotib olindi va tez orada deyarli to'liq ijtimoiy tarmoqqa aylandi. 2011-yilda googli o'zining ijtimoiy platformasini ishga tushirdi. Barcha ijtimoiy tarmoqlarbir qator umumiy xususiyatlarga ega: ro'yxatdan o'tishda foydalanuvchining ro'yxatdan o'tganligi ya'ni

hisob qaydnomasi mavjudligi, foydalanuvchi o'zi haqidagi bazi ma'lumotlarni ko'rsatadi, bu orqali aniqlash mumkin yoki ularga murojat etmaslikning iloji yo'q. Chunki inson dunyo qarashining shakllanishida, ma'naviy olamining yanada kengayishida ayniqsa kompyuter texnologiyasi asosiy vosita rolini o'ynaydi. Hozirgi kunda nuqtai nazari bilan qaraydiga bo'lsak allaqachon global tarmoqqa aylanib ulgurgan intrnet o'zining tezkorligi, chegara bilmasligi bilan ommaviy axborot vosiyalari asosida eng muhim sohaga aylanib ulgurdi. O'zbekiston Respublikasi yoshlari asosida o'tgazilgan so'rovnoma natijasiga ko'ra ularning 60%i ijtimoiy tarmoqlarda kuniga 4 soatdan ko'proq vaqt sarflaydi. Bu esa e'tiborning pasayishi, ruhiy charchoq, yolg'izlanish, o'zini boshqalar bilan solishtirish sindromlariga olib keladi. Bundan tashqari ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan noto'g'ro malumotlar, yolg'om yangiliklar, ommaviy ahborod vositalarining monopulyativ uslublari ham inson ongini boshqarish vositasi sifatida ishlatilishi mumkinligini ko'rsatmoqda. [2;28-35-bet. Sh. Qudratxujayev "Internet va axborot xizmatlaridan foydalanish asoslari"]

Xulosa qilib aytganda ijtimoiy tarmoqlarning insonlarga butunligicha zararli degan fikrga borishimiz hato. Umuman olganda insoniyat zamonaviy texnologiyalardan manfatli foydalanib o'ziga kerakli ma'lumotlarni olishi kerak. Ammo yuqoridagi kabi vaziyatlar tobora avj olib borgan sari insoniyat zamonaviy texnologiyalarning quliga aylanishi aniq. Bunda bo'lmasligi uchun biz vaqtimizni qadrlashimiz zarur. Shu ijtimoiy tarmoqlarga ketkazgan behuda vaqtlar yani keraksiz narsalarni ko'rish o'rniga o'z ustringizda ishleng!

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. D.G'offorova "Ijtimoiy tarmoqlarning kitob o'qish odatiga ta'siri". Toshkent.(2025-yil) 30-bet.
2. Sh. Qudratxo'jayev "Internet va axborot xizmatlaridan foydalanish asoslari". Toshkent. (2013-yil) 28-35-bet.